

PSIXOLOGIYA FANINING HAYOTIMIZDAGI O'RNI

*Durmatova Nilufar Shuxratovna**Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi**Ergasheva Aziza Abduhalimovna**Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*

Annatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda psixologiya faniga bo'lgan ehtiyoj, psixologiya fanining bugungi kundagi o'rni haqida bayon qilingan. Psixologiya faniga bo'lgan qiziqishning yildan yilga oshib borishi sabablari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: psixologiya, psixologik metodlar, psixika, xarakter, psixologik mahorat, Sechenov, Beruniy, Farobiy.

Аннотация: В данной статье описывается необходимость науки психологии сегодня, роль науки психологии сегодня. Анализируются причины ежегодного роста интереса к психологии.

Ключевые слова: психология, психологические методы, психика, характер, психологические навыки, Сеченов, Беруний, Фарабий.

Annotation: This article describes the need for the science of psychology today, the role of psychology today. Reasons for year-by-year increase in interest in psychology are analyzed.

Keywords: psychology, psychological methods, psyche, character, psychological skills, Sechenov, Beruniy, Farabiy.

Psixologiya (yunonchadan olingan bo'lib, "ruh, qalb, ong, xarakter" degan ma'noni anglatadi) shaxslarning psixikasini, ruhiy holatini o'rganuvchi fan. Psixologiya faniga ehtiyoj qadimdan yuzaga kela boshlagan. Bunga sabab qilib, dastlabki odamlar paydo bo'lishini va ularda g'ayritabiiy o'zgarishlar (tush, uyqu, o'lim) paydo bo'lishini olishimiz mumkin. Keyinchalik bu g'ayritabiiy o'zgarishlarga diniy qarashlar orqali baho bera boshlaydilar. Har bir din targ'ibotchilari o'zlarining diniy qarashlaridan kelib chiqib turli xil izoh bildiradilar. Masalan, tush - bu o'limning bir turi, unda ruh tanadan chiqib o'zining xudosining yoniga boradi deb o'ylaydilar. Insonlar onggi rivojlanishi natijasida bu hodisalarga ilmiy qarashlar vujudga keladi va psixologiya fan sifatida o'rganib boriladi. Psixologiya fani fan sifatida shakllanib borishida va turli xil insoniyat uchun noma'lum bo'lgan holatlarlarning fanda o'z izohini topishida bir qancha olimlarning hissasi kattadir. Ular rus olimi Sechenov (1829 - 1905) va uning shogirdlari (ular fanga noma'lum bo'lgan ko'plab hodisalarni tahlil qiladilar va ularning nazariyalari orqali psixologiya fani ancha rivojlanadi), rus olimi Pavlov (1849 - 1936), nemis olimi Leybnis (1646 - 1716), ingliz faylasufi Jon Lokk (1632 - 1704), ingliz tadqiqotchisi Gartli (1705 - 1757), fransuz Didro (1713 - 1784) (ular tafakkur, idrok kabi tushunchalarga ta'rif berishgan), Gobbs (1588 - 1679) (psixologiya faniga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri, u ruh tushunchasini inkor qiladi va harakatni yagona voqealik deb hisoblaydi).

Psixologiya fanining Sharq mamlakatlarida ham rivojlantirib, psixologiya fanini o'rganishga yetarlicha hissa qo'shgan olimlarimiz mavjud. Masalan, Beruniy yunon, rim va boshqa G'arb mamlakatlari olimlarining asarlarini qunt bilan o'rganadi va hayotga tadbiiq qiladi. U psixologiya hayvonlarda ham, insonlarda ham mavjudligini, ammo ularning bir- biridan farq qilishini tushunadi. Hayvonlar psixologiyasi ongsizlikka xoslangan, ya'ni ular o'z - o'zini boshqarish xususiyatiga ega emas, ular fikrlash, o'ylash kabi xususiyatlarga ham ega emas, fikrlash, o'ylash, aql, idrok o'rni ularida reflekslar bajaradi. Insonlar esa o'z - o'zini boshqarish, fikrlash, mantiqiy o'ylash va xulosaga kelish, tafakkur qilish, idrok, diqqat kabi xususiyatlarga ega.

Yana bir Sharq mutafakkir olimlaridan biri - Farobiy. U juda ko'p sohalarni prangan va tahlil qilgan. Masalan, etika, estetika, psixologiya, falsafa, matematika. Psixologiyaga oid qarashlari, asosan, axloq munosabatlari bilan bog'liq, ya'ni Farobiyning fikricha, insonning ahloqi, xulq - atvori shakllanishida, rivojlanishida tashqi muhit va orttirilgan tajribalar muhim ahamiyatga ega. Haqiqattan ham, tashqi muhit insoniyat rivojlanishida ham katta rol o'ynaydi. Muhit yaxshi bo'lsa, ya'ni shaxslar yashayotgan muhit qay darajada sog'lom bo'lsa, u muhitda aqlan, xulqan rivojlangan, yetuk, o'z qarashlariga, fikriga ega insonlar yetishib chiqadi. Tajriba insonlarni mukammallik sari yetaklaydi. Tajribalar qayta xatoga yo'l qo'yishdan saqlaydi va katta hayotiy omildir.

Hozirgi kunda ko'rishimiz mumkinki, maktablarda ko'p o'quvchilar orasida psixologik muammoli o'quvchilar ham mavjud. E'tibor qaratadigan bo'lsak, ular yashab, rivojlanadigan muhit sog'lom emas, ya'ni farzandga bo'lgan ota - onaning e'tibori, mehri kam. Ularga dars o'tish jarayonida yoki ular bilan muloqot jarayonida turli xil to'siqlar uchraydi. Agar ularning holatiga psixologik yechim berilmasa yoki oldi olinmasa, ularning avlodlarida ham ushbu jarayonlar uchrashi mumkin.

Bundan tashqari, ayrim xulqi og'ir ota-onadan tug'ilgan bolalar orasida ham turli xil muammolar uchraydi. Albatta, buning uchun psixologik mahoratga ega, tajribali psixologlar bolalar bilan, nafaqat bolalar, balki ularni voyaga yetkazayotgan ota-onalar bilan ham ishlashi zarur. Hozirgi kunda shunday muammolarning oldini olish maqsadida turli xil chora tadbirlar olib borilmoqda, ya'ni maktablarda psixologlar xulqi og'ir bolalar, o'smirlar bilan ishlashmiqda yoki psixologlar aholi psixologiyasini yaxshilash maqsadida markazlar tashkil qilingan.

Psixologik qarashlar va nazariyalar hayotimizda biz uchun juda zarurdir. Masalan, o'qituvchilar dars jarayonida turli xil psixika egalari bilan muloqotda bo'lalilar va ular bilan til topishish uchun, ularga darsni tushuntirish uchun ham psixologik mahorat va bilimga ega bo'lishlari lozim. Bundan tashqari, shifokorlar bemorlar bilan ishlash jarayonida ham tibbiy jihatdan ham ruhiy jihatdan ularga ko'mak berishlari lozim yoki mehmonxona xodimlari va tarjimonlar ham ko'p muloqotda bo'lalilar va ularga ham muloqot jarayonida turli xil muammolarga duch kelmasliklari uchun psixologik bilimlarga ega bo'lishlari kerak.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatdiki, psixologiya fani insonning ruhiy salomatligini ta'minlashda, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda beqiyos ahamiyatga ega. Oila, maktab, ish joyi kabi hayotiy muhitlarda psixologik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish ziddiyatlarni hal qilish, stressni yengish, hamda sog'lom muhit yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. So'rovnomalar natijalari ham ko'pchilik insonlar psixologik maslahatlarga ehtiyoj sezayotganini ko'rsatdi. Psixologiyaning hayotimizdagi o'rni haqida o'rganilgan faktlar shuni tasdiqlaydiki, bu

fan nafaqat kasbiy psixologlar uchun, balki har bir inson uchun zarur bilim sohasidir. Insoniyat hayotida yuzaga keladigan stress, depressiya, tashvish, munosabatlar muammosi kabi holatlar psixologik yondashuvlar orqali yechim topmoqda. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda raqobat kuchaygani va axborot oqimi oshgani sari insonlarning psixologik barqarorligi muhimlashmoqda. Shu bilan birga, maktab va oliy ta'lim tizimida psixologiyaga e'tiborni kuchaytirish orqali yoshlarda sog'lom tafakkur va ijobiy ruhiy holatni shakllantirish mumkinligi aniqlanmoqda.

Xulosa. Psixologiya fani hayotimizning barcha jabhalarida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, insonlarning o'zini anglash, boshqalarni tushunish va ijtimoiy muhitga moslashuvchan bo'lishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda har bir soha vakilining psixologik savodxonligi yuqori bo'lishi, shaxsiy va jamoaviy muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, psixologik bilimlarni ommalashtirish va bu borada keng jamoatchilikni xabardor qilish jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. kunda yoshlarning psixologik holatini aniqlash maqsadida turli xil psixologik testlar va metodlar qo'llashmoqda. Bundan tashqari, harbiy bilim yurtlariga va davlat idoralariga ma'lum bir lavozim uchun fuqarolarni qabul qilishda ham psixologik testlardan foydalanishadi. O'tish davridagi bolalar bilan ishlash jarayonida ularni stress holatlariga tushunmasligimiz uchun ham, avval ularning psixologiyasini o'rganishimiz kerak. O'tish davridagi bolalarning psixologiyasi juda ham nozik bo'ladi. Shuning uchun oilada ota-onalar bolalari bilan murosaga kelishishlari uchun ham psixologik mahorat va bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun psixologik kitoblarni ko'proq mutolaa qilish kerak. Bir so'z bilan aytganda psixologiya bizga har jabhada zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

E.G'oziyev " Umumiy psixologiya " .Toshkent.2002

P.I.Ivanov , M.E.Zufarov "Umumiy psixologiya ".Toshkent 2008.

F.I.Xaydarov , N.I.Xalilova " Umumiy psixologiya " .Toshkent 2010.

G.I.Ivanov "Umumiy psixologiya " O'qituvchi 1967.

Y.M.Fayziyev , E.H.Eshboyev "Umumiy va tibbiy psixologiya " .Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2013.